

## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Abdulqosimova Durdona Ilhomjon qizi*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

*Utemuratova Gulnaraxan Xojaniyazovna*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Davlat xususiy sherikchilining nazariy asoslari va iqtisodchi olimlar tomonidan keltirilgan ta`riflar berilgan. Bundan tashqari sohani rivojlantirish borasida fikrlar muhokamasi keltirib o'tilgan. Shuningdek, mamlakatimizdagi davlat-xususiy sherikchiligin mahalliy hududan kelib chiqqan holda bir necha turlarga ajratilgan. Muhim jihatni, maqolada davlat-xususiy sherikchiligi asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ayrim nazariy-uslubiy masalalari qarab chiqiladi. Shu bilan birgalikda chet mamlakatlarda davlat-xususiy sherikchiligining shakllari, huquqiy asoslari va ilg'or tajribalari haqida ham ma'lumotlar kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat-xususiy sherikchiligi, tadbirkorlik, korparativ yondashuv, sector, hamkorlik

### KIRISH

Mustaqilligimizning so'nggi yillarda tadbirkorlikka keng yo'l ochilmoqda. Bu esa o'z navbatida qo'shimcha ish o'rnilarini yaratib fuqoralarning turmush darajasiga ijobjiy tasir o'tkazmoqda. Tadbirkorlikning oqilona yo`lga qo`yilishi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga turki bo`ladi. Shunday ekan tadbirkorlikning huquqiy asoslarini yaratib berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Iqtisodiyotda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mulk ulushida xususiy mulkning ustuvorligi aholini ijtimoiy himoya qilishning ayrim sohalarida, inovatsion faoliyatni rivojlantirishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi bir qator tarmoqlarda davlat va xususiy mulkning hamkorligini talab etadi. Shu jarayonda davlat xususiy sherikligi yuzaga keladi. Shu o'rinda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoishlar Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risi"<sup>1</sup>dagi qonun maqullangan, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risi"dagi qarori, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisi"dagi qarori ayni muddaodir.

### ASOSIY QISM

Davlat va biznesning o'zaro ta'siri zamонавиъи bozor iqtisodiyoti rivojlanishida muhim asos sanaladi, chunki DXSH salohiyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish inqirozdan keyingi murakkab sharoitda davlatning biznes bilan o'zaro munosabatlarga tayyorligiga bog'liq. So'nggi yillarda to'plangan xalqaro va mahalliy tajriba dalolat beradiki, DXSH iqtisodiy rivojlanish uchun foydalanimagan zaxiralarni safarbar qilish va resurs bazasini kengaytirish, davlat va jamoatchilik mulkini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat sektoriga qo'shimcha resurslarni jalb etish, byudjet taqchilligi kabi muammolar keskinligini kamaytirish, davlat boshqaruvi salohiyati va xo'jalik yuritishdagi xususiy tamoyillar, investitsiyalar, menejment, innovatsiyalarni birlashtirish imkonini beruvchi asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risi"dagi qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>



Davlat-xususiy sheriklik - bu davlat va xususiy sektorning davlat va kommunal mulk ob'ektlariga, shuningdek, ijtimoiy va ma'muriy organlar, muassasalar va korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan va ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan o'zaro ta'sirining qonuniy ravishda mustahkamlangan shakli. iqtisodiy faoliyatning keng doirasidagi loyihiilar.<sup>2</sup>

Ilmiy adabiyotlarda xorijiy va mahalliy olimlarning DXSHni tashkil etish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlari keltirilgan. Xususan, DXSHning ilmiy-nazariy xususiyatlari MDH olimlaridan K.A.Antonova, A.A.Alpatov, O.S.Belokrilova, I.E.Bolexov, B.G.Varnavskiy, Ye.A.Dinin, L.I.Yefimova, V.A.Mixeev singari olimlarning asarlari, Jahon bankining ma'ruzalarida ko'rib chiqilgan.

Iqtisodchi olim K.A.Antonova "Davlat-xususiy sherikchiligi Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida" nomli asarida DXSHni – davlat va biznes o'rtasida davlat boshqaruvi idoralari va xususiy tuzilmalar orasida shartnomaga asosida amalga oshiriluvchi institutsional tashkiliy ittifoq deb ataydi. I.E.Bolexov esa "Hamkorlikdagi harakatlar maydoni. Davlat-xususiy sherikchiligi innovatsion iqtisodiyot belgisi sifatida" asarida "DXSH - davlat idoralari va xususiy biznes o'zaro ittifoqi hisoblanib, uning maqsadi – iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan to mamlakat miqyosida yoxud uning ayrim hududlarida xizmatlar ko'rsatishga qadar ijtimoiy ahamiyatga molik loyihiarni yaratish va rivojlantirishdan iborat", deb qayd etadi. Shuningdek, V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko va V.A.Korolev hammuallifligidagi "Davlat-xususiy hamkorligi. Nazariya va amaliyot" nomli o'quv qo'llanmasida "DXSH - davlat va jamoatchilik mulki ob'ektlari, shuningdek, keng doiradagi iqtisodiy faoliyat turlarida ijtimoiy ahamiyatga molik loyihiarni amalga oshirish maqsadida davlat va jamoatchilik idoralari, muassasa va korxonalar tomonidan ijro etiluvchi va ko'rsatiluvchi xizmatlarga nisbatan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ta'sirining yuridik jihatdan mustahkamlangan shaklini namoyon etadi" deb ta'kidlashadi.

Davlat va xususiy sherikchiligi turli xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy va milliy iqtisodchi olimlar, mutaxassislar tomonidan har xil talqin etiladi. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) DXSHni – huqumat va bir yoki bir nechta xususiy sheriklarning (o'zaro bajaruvchi yoki moliyalashtiruvchi tashkilot bo'lishi mumkin) o'zaro kelishuvi bo'lib, unga binoan sheriklar xizmatlarni shunday taqdim etilishini ta'minlaydiki, bunda davlatning xizmatlarni taqdim qilish va xususiy investorning foyda olish maqsadlari o'zaro mushtarak bo'ladi hamda mazkur aloqaning samaradorligi xususiy sherikka risklarni qanday taqsimlanganligiga bog'liq.

Bundan tashqari, ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda DXSHning davlatning ijtimoiy obyektlarga nisbatan ayrim boshqaruv vakolatlarini nazarda tutuvchi, an'anaviy davlat xizmatlarini bajarish uchun xususiy sektorni jalb qiluvchi, milliy va xalqaro, keng miqyosli va maxalliy, ammo har doim o'ta muhim va davlat uchun ijtimoiy ahamiyati yuqori loyihiarin amalga oshirish bo'yicha davlat va biznes ittifoqi, konsessiya va operatsion lizingga asoslangan, transport, ko'rik, tonnel, kasalxona, maktab va boshqa ijtimoiy infratuzilmalar uchun tuziladigan hamkorlik, u yoki bu korxonani tashkil qilishdagi risk va naflarni taqsimlash bo'yicha o'zaro munosabatlari, davlat tashkilot va xususiy kompaniya o'rtasida risk va daromad, mas'uliyat va majburiyatlarni taqsimlash bo'yicha kelishuv, davlat manfaatlari yo'lida strategik natijalarga erishish uchun amalga oshiriladigan o'rtalari va uzoq muddatli davlat-xususiy sektor munosabatlari, DXSH predmeti davlat va munitsipial mulkdan, hamda hokimiyyat organlari, byudjet sektori tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan tashkil topuvchi davlatning xususiy sektor bilan keng iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha munosabatlari, xususiylashtirish mumkin bo'lmagan – ko'rik, avtomobil magistral yo'llari, truba quvurlari, aerodrom, portlari kabi strategik obyektlarini davlat mulkida qoldirib, xususiy sektorga uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog'liq munosabatlari, mintaqalar uchun umumiqtisodiy manfaatlarga erishish va dolzarb vazifalarni yechishga qaratilgan muhim munosabatlari, davlatning biznesga hukm o'tkazib, iqtisodiyotga chuqur aralashuvini emas, balki u bilan hamkorlikda, loyihiilar bo'yicha maslahatda ishlashini ko'zda tutuvchi, davlatning iqtisodiy siyosatining umumiy maqsadlariga erishish bo'yicha munosabatlari kabi minglagan talqinlarini uchratishimiz mumkin.

<sup>2</sup> Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariyuslubiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil



## XULOSA

So‘nggi yillarda DXSH rivojlanayotgan davlatlarda yangi tushuncha bo‘lmasdan, birlamchi iqtisodiy tushunchaga aylandi. Chunki, bu tushuncha davlat idoralarining tashkiliy tuzilmasi va bozor infratuzilmasiga mustahkam kirib bormoqda. Jumladan, O‘zbekistonda ham DXSH asosida rivojlanayotgan korporativ boshqaruv tuzilmalarining soni (yirik korporatsiyalar, kompaniyalar va aksionerlik jamiyatları) tobora ortib, bu boradagi qonunchilik ham bosqichmabosqich takomillashtirilib borilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezident\\_i-shavkatmirziyeevning-oliisy](http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezident_i-shavkatmirziyeevning-oliisy), 28.12.2018

2. O’zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to’g’risi”dagi qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>

3. O’zbekiston Respublikasining Davlat-xususiy sherikligi to’g’risidagi O’RQ-537- son Qonuni. 2019 yil 10 may. <https://lex.uz/docs/4329270>

4. Белиская, А.В. Правовые формы государственно–частного партнерства в России и зарубежных странах / А.В. Белиская // Предпринимательское право. – 2009. – Н2. – С.21–27.

5. Elmiraev S.E., Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarning ilg,,or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo,,llash istiqbollari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun,2019 yil

6. Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantrishning ayrim nazariyuslubiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil

7. Hakan Yurdakul, Rifat Kamaşak, Tülay Yazar Öztürk, Macroeconomic drivers of Public Private Partnership (PPP) projects in low income and developing countries: A panel data analysis Borsa Istanbul Review, 2021, <https://doi.org/10.1016/j.bir.2021.01.002>(<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2214845021000028>)

8. Jessada Sresakoolchai, Sakdirat Kaewunruen, Comparative studies into public private partnership and traditional investment approaches on the high-speed rail project linking 3 airports in Thailand, Transportation Research Interdisciplinary Perspectives, Volume 5, 2020, <https://doi.org/10.1016/j.trip.2020.100116>.

